

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

### Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,**  
**2022.**

<b>J.Xudoyberdiyev, A.Reymov, R.Kurbaniyazov, SH.Namazov, O.Badalova, A.Seytnazarov</b> Qoraqalpog‘istonning jelvakli fosforit uni asosidagi faollashgan superfosfat .....	248
<b>M.Ahmedov, Z.Teshaboyev</b> “Hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida innovatsion xarakterga ega bo‘lgan “mavzu ishlanmasi” tayyorlash.....	255
<b>KIMYO</b>	
<b>S.Samatov, A.Ikramov, O.Ziyadullayev, S.Abduraxmanova</b> Benzaldegid va uning xosilalarini fenilatsetilen ishtirokida enantioselektiv alkinillash jarayoni.....	259
<b>I.Asqarov, G‘.Madrahimov, M.Xojimatov</b> <sup>3</sup> O-ferrotsenil benzoy kislotasini ayrim hosilalarining biologik faolligini o‘rganish .....	267
<b>U.Mamatkulova, X.Isakov, I.Askarov</b> Sarimsoqpiyoz va po‘stining kimyoviy tarkibi, shifobaxshlik xususiyatlari.....	271
<b>I.Askarov, Z.Nazirova</b> Qizil lavlagi tarkibidagi ayrim kimyoviy birikmalar va ularning ahamiyati .....	275
<b>I.Asqarov, B.Nizomov</b> Yeryong‘oq va yong‘oq mevasining qiyosiy kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari .....	279
<b>I.Mamatova, I.Askarov</b> «Oltin vodiy» oziq-ovqat qo‘shilmasining giperglikemik xususiyatlari .....	283
<b>I.Askarov, X.Isakov, SH.Turaxonov</b> Monometilolmochevinagallat efirlarini olish .....	286
<b>BIOLOGIYA, QISHLOQ XO‘JALIGI</b>	
<b>A.Xusanov D.Kapizova, G.Zokirova, N.Oxunova</b> Farg‘ona vodiysi sharoitida ochiq urug‘li daraxt va butalarning so‘ruvchi fitofaglari (Iachnidae, diaspididae): faunasi va ekologiyasi.....	290
<b>M.Nazarov, M.Ma‘murova, A.Xamidov M.Mirzaxalilov</b> Baliqchilik xo‘jaligi hovuzlarida fitoplankton tarkibi va o‘simlikxo‘r baliqlarni yetishtirishda ularning o‘rni .....	295
<b>ILMIY AXBOROT</b>	
<b>Z.Xosilova</b> Oshiqcha tana vazni va uning aholi guruhlari (18-59 yoshlilar) orasida uchrash holati .....	299
<b>S.Mamadaliyeva, M.Omonova, B.Saydaliyev</b> Mahalliy xomoshyodan adsorbentlarda parafinni chuqur tozalash uchun kombinirlangan texnologiya .....	302
<b>A.Xolikulov</b> Buxoro xonligining Rossiya bilan siyosiy aloqalari tarixidan.....	306
<b>X.Jumaniyozov</b> Markaziy Osiyoning tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, logistik imkoniyatlarining geosiyosiy jarayonlarga ta’siri.....	312
<b>A.Hakimov</b> Sovet davri maktab o‘qituvchilarining kundalik hayoti .....	316
<b>G‘.Israilov</b> Sakkokiy adabiy merosi o‘rganilishi manbalari xususida.....	321
<b>S.Xoliqov</b> Milliy xavfsizlikni ta’minlash jarayonida O‘zbekiston respublikasi Oliy Majlisi senati ishtirokining tashkiliy va nazariy-huquqiy asoslari .....	325
<b>O.Axmadjonova</b> Badiiy asarda psixologik (ruhiy) tahlil printsiplari va usullari.....	330
<b>D.Buzrukova</b> “Muhabbat” konseptining lingvomadaniy o‘ziga xosligi .....	334
<b>K.Topvoldiyev</b> Lermontov M.Yu. asarlarida XIX asr kavkazi.....	338
<b>S.Abduraxmonov, SH.Ibragimov</b> Ta’lim tizimida baholashning asosiy mezonlari va uning ahamiyati .....	345
<b>A.U.Choriyev, G.O Temirova,</b> <b>Yetuk kimyogar, kamtarin olim</b> .....	349

## “MUHABBAT” KONSEPTINING LINGVOMADANIY O‘ZIGA XOSLIGI

## THE LINGVOCULTUROLOGICAL SPECIFICITY OF THE CONCEPT OF “LOVE”

## ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА КОНЦЕПТА «ЛЮБОВЬ»

Dilorom Mamirxonovna Buzrukova<sup>1</sup><sup>1</sup>Dilorom Mamirxonovna Buzrukova– Farg‘ona davlat universiteti  
maktabgacha ta‘lim kafedrasida o‘qituvchisi.**Annotatsiya**

Maqolada “Muhabbat” konsepti barcha tillarda inson tuyg‘ularini ifodalovchi tushuncha ekanligi hamda etnosemantik spetsifikalari va til tashuvchisining mentaliteti bilan bog‘liqligi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, “Muhabbat” konseptining subkonseptlari mundarijasi gender parametrlari hisobga olinganda, subkonseptlarning gender ko‘rsatkichlarini farqlanishi ko‘rib chiqiladi.

**Аннотация**

В статье утверждается, что концепт «любовь» представляет собой концепт, выражающий человеческие эмоции во всех языках и связанный с этносемантической спецификой и менталитетом говорящего. Содержание субконцептов концепта «Любовь» также учитывает различия гендерных показателей субконцептов с учетом гендерных параметров.

**Abstract**

The article argues that the concept of "love" is a concept that expresses human emotions in all languages and is related to the ethno-semantic specifics and mentality of the speaker. The content of the sub-concepts of the concept of "Love" also considers the differences in the gender indicators of the sub-concepts, taking into account the gender parameters.

**Kalit so‘zlar:** konsept, lingvomadaniy, subkonseptlar, etnosemantik, tadqiqot, gender, lingvokulturologik, tuyg‘u, ruhiyat.

**Ключевые слова:** концепт, лингвокультурология, субконцепты, этносемантика, исследование, гендер, лингвокультурология, эмоция, психика.

**Keywords:** concept, linguocultural, subconcepts, ethno-semantic, research, gender, lingviculture, emotion, psyche.

**KIRISH**

Ma‘naviy-madaniyatning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan “muhabbat” konsepti o‘zining umumbashariy tabiatiga qaramay, har bir alohida til madaniyatida u haqidagi tushuncha va munosabatlar o‘ziga xos xususiyatga ega. **“Muhabbat”** – bu har qanday buyuk yoki oddiy insonlarning e‘tiborini to‘liq tortishi mumkin bo‘lgan ruhiyat namoyonidir. Ruhiiy holatning aksi sifatida muhabbat universaldir, chunki har bir inson millatidan, irqidan, yoshidan qat‘iy nazar bu tuyg‘uni his etish hamda qabul qilish istagi va qobilyatiga ega.

Ma‘lumki, har qanday tilning leksik tarkibi shu tilda so‘zlashuvchi tegishli odamlar jamoasining tabiatini, ularning dunyoqarashini aks ettiradi, milliy mentalitetni o‘rganish uchun esa obyektiv asos bo‘ladi. E.Sepir ta‘kidlaganidek, “til, madaniyatni tushunish uchun ramziy qo‘llanma” va uning so‘z boyligi “xalq madaniyatining juda nozik ko‘rsatkichidir”.

**ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR**

Umuminsoniy madaniy tushunchalardan biri bo‘lgan “Muhabbat” konsepti ko‘plab tillarda tadqiqotchilarning e‘tiborini tortib kelmoqda. Masalan, “Muhabbat” konseptining leksik-semantik strukturasini tavsiflash, turli lingvomadaniyatlarda uning lingvokulturologik o‘ziga xosligi va emotsional tushuncha sifatida o‘rganish borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Rus tilshunosligida L.YE. Vilms, V.I.Shaxovskiy, YE.YE. Kashtanovalarning “Muhabbat” konsepti bo‘yicha lingvomadaniy aspektda olib borgan tadqiqotlari ushbu konsept mohiyatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Y.D.Apresyan, A.D.Shmelev, S.Stepanov, S.G.Vorkachev, V.V.Kolesov, L.N.Churilinalarning tadqiqotida esa “Muhabbat” lingvomadaniy konsepti inson ichki olamining murakkab hodisasi sifatida ko‘rib chiqiladi.

“Muhabbat” konsepti barcha tillarda inson tuyg‘ularini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Lingvomadaniy emotsional tushuncha sifatida qaraladigan muhabbat leksemasi universal xususiyatga ega bo‘lishiga qaramay, bizning fikrimizcha, etnosemantik spetsifikali va til tashuvchisining mentaliteti bilan bog‘liq. “Muhabbat” konseptining o‘zbek tilidagi ifodasini ham boshqa tillardagi kabi turli leksemalar yordamida ko‘rsatish mumkin. O‘zbeklar lisoniy ongida “Muhabbat” konsepti voqelikni milliy lisonida ko‘rishi va uni o‘ziga xos idrok etishini “Majnun” ga xos muhabbat ta’rifidan ham ko‘rish mumkin. O‘zbek yozuvchi va shoirlarining ijodini kuzatar ekanmiz ularning aksariyatini muhabbat kuychisi deyish mumkin, ya’ni ular tuyg‘ularni ifodalovchi boshqa konseptlarga nisbatan “Muhabbat” konsepti haqida ko‘proq yozadilar. Bunda muhabbati uchun kurashuvchan yigitlar ishq yo‘lida Farhod va Majnunga, ularning ma’shuqalari Shirin va Layliga qiyoslanadi.

Ko‘ngil ishi...

- Bo‘ysunmas, qo‘rqmas. Ko‘ngil xohishidan tug‘ilgan, dillarni chirmab bog‘lagan muhabbatgina odamni shunchalar hushdan ayiradi. Bunday muhabbat ruhoniyl xohish sanaladi...
- Bunchalar nozik his etmoq uchun benihoya qattiq seva bilmoq kerak!..
- Layli-Majnun bo‘la bilmoq kerak, seva bilmoq kerak. Seva bilmoq...

Yuqorida qayd etilgan misoldan seziladiki, o‘zbeklar olam manzarasida erkak va ayol o‘rtasidagi muhabbatning eng oliy va samimiy ko‘rinishi badiiy adabiyotda Layli va Majnun muhabbatiga qiyosan dalillanadi.


Insondagi turli tuyg‘ularining aks etishida, ayniqsa, konseptual va semantik belgi orasida bog‘lanish borligi seziladi. Chunonchi, do‘stlik tuyg‘usining yadrosi muhabbat hisoblanadi. Bir-biri bilan hurmat asosida tanishishga muayassar bo‘lgan erkak va ayol o‘rtasidagi ahillik, yaqinlik, mehr-muhabbat ana shu do‘stlik tufayli paydo bo‘ladi.

Shuningdek, muhabbat leksemasi konsept sifatida insoniy tuyg‘ularni anglatib, o‘zbek tilida mehr, yurak, qalb, nafrat, sog‘inch, qo‘rquv, kabi ko‘plab his-tuyg‘ularni ifodalovchi leksemalar bilan til tashuvchisining lisoniy ongida bevosita assotsiyatsiyalashuvi natijasida turli subkonseptlar bilan birga semantik maydon hosil qiladi. Ushbu subkonseptlar shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi “Muhabbat” konseptining lingvistik ifodasini, uning etnomadaniy xususiyatini va to‘liq ta’rifini o‘rganishga yordam beradi. “Xurshid Do‘stmuhammad ushbu asarida inson ko‘nglini, uning muhabbatga to‘la tuyg‘ularini birinchi o‘ringa qo‘yadi va inson qalbidagi poklik, samimiylik, o‘zaro mehr uning tafakkurini belgilaydi, qalbdagi go‘zallik haqiqiy go‘zallikdir, degan sharqona xulosani asar mohiyatiga singdiradi. Qalb, yurak – insonning haqiqiy insoniyligini, odamiyligini ko‘rsatib beruvchi asosiy tushunchadir. Asarda voqelik ham qalbdagi his-tuyg‘u, kechinmalar, xotiralar orqali bizga namoyon bo‘ladi. Qissadagi oshiq yigit dunyoni faqat go‘zalliklarda, oq ranglarda va oqlikdan taralayotgan nurda, insonlarning o‘zaro bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbatida ko‘radi. Dunyoga shoirona nigoh bilan boqadi. Adib kitobxonlarni tashqi olamdan uzib olib, ko‘ngil degan beaded makonga olib kiradi va ko‘ngilning turfa jilolarini, sog‘inchning alamlarini, muhabbatning cheksiz iztiroblarini his qilishni, tushunishni kitobxonning hukmiga havola qiladi”

**NATIJA VA MUXOKAMA**

“Muhabbat” konsepti har qanday madaniyatning eng muhim va qadimiy tushunchalaridan biri sifatida barcha millat vakillari olam manzarasida farqli ravishda, o‘ziga xos tarzda talqin qilinadi.

Shuningdek, o‘zbeklar lisoniy ongida salbiy konnotatsiyalanadigan xiyonat, befavvo, nafrat, ayriliq, kabi rashk



leksemalar ham uning makrosemantik maydonida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilida "Muhabbat" konseptining makrosemantikasida quyidagi tasavvurlar umumiy hisoblanadi:

Muhabbat tushunchasi inson hayoti uchun zaruriy tuyg'u hisoblanib, uning paydo bo'lishi bilan bog'liq tasavvurlar yurak konseptiga bog'lanadi. O'zbek tilida yurak leksemasi o'rnida qalb, dil, ko'ngil kabi leksemalar inson tuyg'ularini ifodalovchi lisoniy mental xususiyatlarga ega leksemalar sifatida ham qo'llaniladi.

Assotsiyatsiyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, "Muhabbat" konseptining assotsiyativ-verbal tarmog'i uning konsept osti tushunchalariga, ya'ni subkonseptlarga ishora qiladi. Tadqiqotchi R.S.Ibragimova "Ayol kognitiv maydonini aniqlashda Baxt, Go'zallik, Ona, Yolg'izlik, Muhabbat kabi giperkonseptlar tadqiqot talab ekanligini qayd etadi.

Darhaqiqat, muhabbat konsepti baxt va go'zallik konsepti bilan qanchalik bog'langan bo'lsa, ayol va ona konseptiga ham shunchalik bog'liqdir.

Ana shu fikrga tayangan holda "Muhabbat" konseptining o'zbek tilidagi subkonseptlarini quyidagicha belgilash mumkin:



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, muhabbat olamining manzarasi til tashuvchilari ongida o'ziga xos tasavvurlar bilan bog'liq. Shuningdek, "Muhabbat" konseptining subkonseptlari mundarijasi gender parametrlari hisobga olinganda, subkonseptlarning gender ko'rsatkichlari farqlanishini kuzatish mumkin.

Muhabbat tushunchasini ahloqiy-psixologik jihatdan o'rganish uchun olib borilgan tadqiqotlardan muhabbatning semantik modeli o'zida quyidagi xususiyatlarni aks ettirishini ko'rish mumkin:

- 1) "qiymat" integral belgisi;
- 2) Subyektning qadriyat tizimida muhabbat obyektining o'rni.
- 3) "Ijobiylik" belgisi;
- 4) Muhabbat obyektini asossiz tanlash ya'ni ixtiyorsizligi;
- 5) Muhabbat obyektini subyekt tomonidan individuallashtirish; Muhabbat obyektiga jinsiy tus berish.

Turli lingvomadaniyat vakillarining dunyoqarashlarini taqqoslash muayyan tushunchalarga



## OTA MUHABBATINING SUBKONSEPTLARI

nisbatan o'xshashlik va farqli jihatlarni aniqlashga asos bo'ladi. "Muhabbat" konseptining turli diskurslarda ko'rib chiqish esa uning semantik maydonini to'liq yoritishga yordam beradi. Masalan, turli tillardagi muhabbat to'g'risidagi qo'shiqlar nutqida bu tuyg'uga munosabat o'xshashlikda ifodalanadi ya'ni konseptning umuminsoniy jihatlari ko'proq kuzatiladi.

**XULOSA** o'rnida aytish mumkinki, o'zbeklar lisoniy ongida esa muhabbat konseptining mundarijaviy minimumi o'zaro insoniy munosabatlarga asoslanib, barcha til egalari lisoniy ongida o'zaro yaqinlikni turli darajalarda ifodalovchi subkonseptlar bilan ham anglashiladi.

### Adabiyotlar:

- 1) Дмитриева Н.М., Линтовская Е.М. . Этический смысл концепта "Любовь" в русской языковой картине мира (На материале словарей XI-XIX веков) Вестник Оренбургского государственного университета 2016 № 7 (195) .;
- 2) Do'stmuhammad Xurshid. Qissalar.- Sharq, 2011
- 3) Sepir, E.Izbranniye trudi po yazikoznaniyu I kultirologii / E.Sepir. –M.: Progress, 2002. –243 s.
- 4) Solovyova T.V. Konsept "lyubov" kak otrajeniye individualnogo obraza mira (na material tvorchestva Konstantina Skvortsova). <https://cyberleninka.ru/>; Ashurov Sh, Mirzakulova. Jamiyat va innovatsiyalar.
- 5) Ibragimova R.S. Fransuz va o'zbek tillarida ayol konseptining lingvokognitiv tadqiqi. Avtoref.fil.fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan. – Toshkent, 2012. – 31b.
- 6) Madriyev T. Ingliz va o'zbek tillarida inson tuyg'ulari ifodalanishning konseptual taxlili: filol.fan.do. (PhD) ... diss.avtoref. – Samarqand, 2019.
- 7) Madriyev T. Ingliz va o'zbek tillarida inson tuyg'ulari ifodalanishning konseptual taxlili: filol.fan.do. (PhD) ... diss.avtoref. – Samarqand, 2019.
- 8) Madriyev T. Ingliz va o'zbek tillarida inson tuyg'ulari ifodalanishning konseptual taxlili: filol.fan.do. (PhD) ... diss.avtoref. – Samarqand, 2019.
- 9) Raxmonova X. Qissa janrida ramziy-falsafiy qatlam tabiati (Xurshid Do'stmuhammadning "Hijronim mingdir mening" qissasi misolida) So'z san'ati xalqaro jurnali. 13-b.
- 10) <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>

(Taqrizchi: D.Yuldasheva – filologiya fanlari nomzodi, dotsent)